

UO‘T:635.25.

BOSH PIYOZNING TANLANGAN ISTIQBOLLI NAV ICHIDAN KONKURS NAV SINOVI TASHKIL ETISH.

Hayitbayev Doniyor Komiljon o‘g‘li

*Qoraqolpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti
“Meva-sabzavotchilik va polizchilik” kafedrasi assistenti q.x.f.f.d .*

Seypaddinova Gulsanem

*Qoraqolpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti
“Meva-sabzavotchilik va polizchilik” kafedrasi talabasi.*

Uzaqbayeva Zulayxa

*Qoraqolpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti
“Meva-sabzavotchilik va polizchilik” kafedrasi talabasi.*

Annotatsiya. Qoraqolpog‘iston Respublikasining tuproq iqlim sharoitida xorijiy davlatlaridan keltirilgan bosh piyozning 32 tadan ortiq kolleksiyasining iqlimlashtirilganligi va qimmatli xo‘jalik belgilari o‘rganilganligi hamda aniqlanganligi maqolada yoritilgan.

Jumladan, tajriba natijalarida k-1 “Dermo”, k-9 “Brown Beauty”, k-194 “Nomsiz”, k-10 “Kind Variety”, k-12 “Pioneer 25013”, k-13 “Canade maple”, k-173 “Nomsiz”, k-185 “Nomsiz”, k-11 “Xalsedon”, k-18 “Meteor”, k-40 “Roket”, k-43 “Spring Onion”, k-44 “Grandina”, k-170 “Nomsiz”, k-120 “Nomsiz”, k-50 “Super Bear”, k-75 “Prince-33”, k-153 “Qizil piyoz”, k-128 “Kizil sak”, k-85 “K-3”, k-81 “K-11”, k-83 “K-12” va k-80 “K-13”. nav namunaliri ertapisharligi bilan ajralildi.

Kalit so‘zlar: nav, namuna, tizma, nav, duragay, boshi piyoz, hosildorlik, ertapishar, nav namunalari, barg, barg yuzasi, bosh piyoz vazni aniqlandi.

Kirish. Bosh piyozni kolleksiya nav namunalarining qimmatli xo‘jjalik belgilari bo‘yicha o‘rganishlar natijasida Koreyadan keltirilgan k-58 “K-3” nav namunasi yakka tanlash asosida mos ravishda L-2 liniya ajratib olinib, qimmatli xo‘jalik belgilari bo‘yicha o‘rganildi. Seleksiyaning yakka tanlov usulida ishlar doimiy ravishda olib borildi. Natijada bosh piyoz ekinning yangi ertapishar, hosildor, sifatli hosil miqdori yuqori bo‘lgan navi yaratildi.

Ushbu L-2 liniya o‘stidan nav tanlov sinovi olib borildi. Yangi navni sinovdan o‘tkazish uchun Qishloq xo‘jaligi ekinlari nav sinash markaziga “Qizil nur” nomi bilan topshirildi va bu ekinni sinovga topshirilgan yillar (2022 y) Davlat reestriga kiritilgan “Kaba-132” navi bilan bir biriga taqqoslanib sinaldi.

Sinovdan o'tayotgan navlar ertagi muddatda (10-mart) ochiq dalaga urug'idan ekildi.

Bosh piyozni ertapisharlik belgisi bo'yicha o'rganilganda davlat reestriga kiritilgan bosh piyozning "Kaba-132" naviga nisbatan yangi yaratilgan "Qizil nur" navini 2022-2023-yillarda bir biriga taqoslab sinovlardan o'tkazilgan fenologik kuzatishlar natijasida nihollarning unib chiqishi o'rtacha standart Kaba-132 navda 8- kun 10 %, 14- kunda 75 % tashkil etgan bo'lsa, yangi yaratilgan Qizil nur navida o'rtacha nihollar 6- kun 10%, 12- kunda 75% tashkil etdi hamda 10 va 75% o'nib chiqishda 2 kunga erta unib chiqqani ko'zatildi. Bu natija o'z navbatida o'simliklarda fenologik jarayonlarni tez boshlanishiga zamin bo'ldi.

Standart Kaba-132 navida nihollarining birinchi chinbarg 20 kun, yangi Qizil nur navida esa 17 kunda shakllandi. Ko'chatlardagi 4 chinbarglar standart Kaba-132 navida 25 kunda, yangi Qizil nur navida 22 kunda hosil bo'ldi.

Dehqonlarimiz tomonidan ko'p yillardan buyon yetishtirib kelayotgan standart Kaba-132 navida bosh piyozini shakllana boshlashiga 85 kun kerak bo'ldi, yangi yaratilgan Qizil nur navida bosh piyozini shakillana boshlashiga 70 kun yetirli bo'ldi. Bu esa andoza Kaba-132 navidan Qizil nur navining bosh piyozini shakllantirishi 15-kun erta sodir bo'ldi.

Yangi yaratilgan Qizil nur navida fenologik ko'zatuvarlar olib borilganda urug' ekilgan kundan, barglarini sarg'aya boshlashigacha 100 kun kerak bo'ldi. Standart Kaba-132 navga esa 130 kun yetarli bo'ldi. Ko'rinib to'riktiki yangi Qizil nur navida urug' ekilgan kundan, barglarini sarg'aya boshlashigacha standart navga nisbatan 30 kun oldin sodir bo'ldi.

1-jadval.

Bosh piyozning yangi Qizil nur va standart Kaba-132 navlarining fenologik ko'rsatgichlari (2022-2023 y.)

Nav nomina	Urug'lar unib chiqishi, kun		Birinchi chinbarg paydo bo'lish, kun	4-5 ta barg paydo bo'lish, kun	Bosh piyozni shakillana boshlash, kun.	Urug' ekilgandan, barglarini sarg'aya boshlash, kun.	O'suv davri, kun
	10 %	75 %					

Kaba-132, St.	8	4 ¹	20	25	85	130	5 ¹⁵
Qizil nur	6	2 ¹	17	22	70	100	0 ¹²

Tadqiqotlarimizda bosh piyozning standart sifatida qatnashayotgan Kaba-132 navning o'suv davri 155 kunni tashkil etgan bo'lsa, yangi yaratilgan Qizil nur navining o'suv davri 120 kun bo'lganligi ko'zatildi. Bu esa standart navdan 35 kunga erta yetilganligi va ertapisharligi aniqlandi.

Bosh piyozning hosildorlik va sifatli hosil miqdori belgisi bo'yicha o'rganilganda

Respublikamizda ko'p yillar davomida dehqonlarimiz tomonida yetishtiriladigan va Davlat reestriga kiritilgan bosh piyozning "Kaba-132" naviga nisbatan konkurs nav sinovida yangi "Qizil nur" navining bosh piyoz vazni, hosildorlik ko'rsatkichlari va sifatli hosil miqdorilari solishtirib o'rganildi. (7-jadval).

Standart Kaba-132 navining bosh piyoz og'irligi 120 g ni tashkil etgan bo'lsa, yangi yaratilgan Qizil nur navida bu ko'rsatkich 160 g bo'lib standart Kaba-132 navidan 40 g ga yoki 133,3 foizga og'irligi namoyon bo'ldi.

2-jadval

**Konkurs nav sinovida ekilgan bosh piyozning hosildorlik va sifat ko'rsatkichlari
(2022-2023 y.)**

Namuna nomi	Bosh piyoz vazni, g	Standartga nisbatan qo'shimcha		Umumiy hosildorligi, t/ga	Standartga nisbatan qo'shimcha		Sifatli hosildorligi, %
		g	%		t/ga	%	
Kaba-132, st.	120	-	100	35	-	100	90
Qizil nur	160	40	133,3	45,7	10,7	130,5	95

Umumiy hosildorligi bo'yicha Qizil nur navida aniqlanganda standart Kaba-132 navidan sizilarli darajada yuqori va ishonchli hosil to'plab yuqori hosildorligini ko'rsatdi.

Bosh piyozning rayonlashtirilgan Kaba-132 navidan 35 t/ga umumiy hosil olingan bo'lsa, Qizil nur navidan esa 45,7 t/ga umumiy hosil olindi, standart navga nisbatan 10,7 t/ga yoki 130,5 foizga yuqori hosil olindi.

Bosh piyozning kolleksiyasini o'rganish va yangi navini yaratish bo'yicha olib borilgan tajribalarimizda yangi yaratilgan Qizil nur (95%) navining yetishtirilgan hosilning tovarbop mahsuloti standart Kaba-132 (90%) navidan 5 foizga yuqori to'plaganligi namoyon bo'ldi.

Bosh piyozni "Qizil nur" navining dastlabki man'balar bilan asosiy qimmatli xo'jalik belgilarini farqliligi aniqlanganda, bosh piyozni shakllana boshlashiga Koreyaning k-85 "K-3" nav namunasida 76 kun bo'lgan bo'lsa "Qizil nur" navda esa 70 kun bo'lib, 6 kunga qisqarganligi ko'zatildi (3-jadval.).

Bundan tashqari urug' ekilgandan, barglarini sarg'aya boshlashgacha k-85 "K-3" nav namunasida 107 kun bo'lgan bo'lsa Qizil nur navda 100 kunga qisqarganligi hamda o'suv davri k-85 "K-3" nav namunasida 125 kun o'suv davri davom etgan bo'lsa, yangi qizil nur navida 120 kunga qisqarganligi yoki 5 kunga ertapisharligi aniqlandi.

3-jadval.

Bosh piyozni "Qizil nur" navining dastlabki man'balar bilan asosiy qimmatli xo'jalik belgilarini farqliligi

Morfobiologik ko'rsatgichlar	Birlik	Nav va namunalar	
		Koreyaning k-85 "K-3" namunasi	«Qizil nur» navi
Bosh piyozni shakllana boshlash, kun	kun	76	70
Urug' ekilgandan, barglarini sarg'aya boshlash, kun.	kun	107	100
O'suv davri, kun	кун	125	120
Bosh piyoz vazni, g	г	145	160
Umumiy hosildorligi	т/га	43,2	45,7
Sifatli hosildorligi	%	93	95

Bosh piyozning vazni bo'yicha ham dastlabki k-85 "K-3" nav namunasidan yangi yaratilgan Qizil nur navida bosh piyoz vazni og'ir ekanligi ko'zatildi. Jumladan Qizil nur navida piyoz bosh vazni 160 g bo'lgan bo'lsa dastlabki k-85 "K-3" nav namunasida 145 g bo'lganligi va yillar davomida yangi navning navdorligini oshirish natijasida 15 g ga o'zgarganligi ko'zatildi.

Umumiy hosildorlik ham o'zviy bog'likda dastlabki k-85 "K-3" nav namunasidan yangi Qizil nur navining umumiy hosili 2,5 t/ga yoki 5,7 foizga oshganligi namoyon bo'ldi.

Hamda tovarbop hosil miqdorini aniqlash bo'yicha ko'zatuvarlar natijasida yangi yaratilgan Qizil nur navi dastlabki Koreyaning k-85 "K-3" kolleksiya nav namunasidan 2 foizga sifatli yuqori mahsulot to'plaganligi aniqlandi.

Xulosalar

Yangi yaratilgan "Qizil nur" nav ustida konkurs nav sinovlari olib borish natijasida o'suv davri bo'yicha standart "Kaba-132" navga nisbatan 35 kunga qisqa ekanligi aniqlandi. Shu bilan birga, ushbu yangi navda ertapisharlik xususiyati ham ko'zatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Пивоваров В.Ф., Конанков П. Ф., Никулшин В.П. Значение овощей как продуктов питания. Овощи – новинки на вашем столе. // Москва ВНИИССОК, 1995 – С. 8-33.
2. Пивоваров, В.Ф. Ершов, И.И., Агафонов, А.Ф. Луковые культуры // М., 2001 – С.210.
3. Azimov B.J., Azimov B.B. "Sabzavotchilik, polizchlik va kartoshkachilikda tajribalar o'tkazish metodikasi".-Т. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2002 у, 180-198 В.
4. Белик В.Ф.Методика опытного дела в овощеводстве и бахчеводстве. // М.: Колос, 1992 – С.34.
5. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. // М., «Колос». 1973.